



FOLKLOR ASARLAR TILIDA KICHRAYTIRISH-ERKALASH SHAKLLARINING QO'LLANILISHI

Yusupova Orziboni Sunnatovna
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichraytirish-erkalash ma'nosini beradigan -cha,-choq, -chak, -gina, -jon, -xon,-oy, -bek, -boy, -voy kabi affiks va affiksoidlarning bolalar folklorida, o'zbek xalq topishmoqlarida, chorvachilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan bog'liq xalq qo'shiqlarida, xalq dostonlarida qo'llanilish xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kichraytirish-erkalash shakllari, alla, erkalash, ovutmachoq, emotsiyal-ekspressivlik, subyektiv munosabat.

Аннотация: В данной статье используются такие аффиксы и аффиксоиды, как -ча, -чак, -гина, -джан, -хан, -ой, -бек, -бой, -вой означающие сжимание и ласканье. Детский фольклор узбеков, объяснены особенности использования в народных загадках, народных песнях, связанных с животноводством, ремеслами, земледелием, народных эпосах.

Ключевые слова: уменьшительно-ласкальные формы, колыбельная, ласка, эмоциональная выразительность, субъективное отношение.

Annotation: In this article, affixes and affixoids such as -cha, -chak, -chok, -gina, -jan, -khan, -oy, -bek, -boy, -woy, which mean caressing, are used in Uzbek children's folklore, features of use in folk riddles, folk songs related to livestock, handicrafts, farming, and folk epics are explained.

Key words: diminutive-caressing forms, alla, caressing, flirting, emotional-expressiveness, subjective attitude.

Xalq og'zaki ijodi qadimiy so'z san'ati sifatida chuqur g'oyaviyligi, yuksak badiiyligi bilan birga til birliklaridan foydalanish jihatdan ham ajralib turadi. Bu haqida "O'zbek folklori" darsligi mualliflari quyidagi fikrlarni bildirishadi: "Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi [5. –B.32]. Xalq og'zaki ijodi namunalari esa tilimizning o'ziga xos imkoniyatlarini o'rganishimizda yozma manbalar singari bizga yordamga keladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari mulohazalarimizning yaqqol isbotidir: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga qulqoq tutsin" [1]. Shu sababdan o'ziga xos modal munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladigan -cha, -choq, -chak, -gina, -jon, -xon, -oy, -bek, -boy kabi kichraytirish-erkalash shakllarining xalq og'zaki ijodi janlarida qay tarzda ishtirok etishi va qanday subyektiv munosabatlarni





ifodalashini o‘rganishga harakat qildik. Dastlab kuzatishlardan shuni aytish kerakki, bu affiks va affiksoidlar xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan aksariyat janrlarda mavjud. Biroq janr talabi bilan ayrimlarida juda faol qo‘llanilgan hamda ma’lum lingvopoetik vazifa bajargan. Masalan, bolalar folkloriga xos bo‘lgan “Alla”, “Erkalash”, “Ovutmachoq” kabilarda bu affikslarning qo‘llanishi juda zarur. Bu qo‘shimchalar onaning bolaga bo‘lgan qaynoq mehrini, bolaning yoqimtoy ko‘rinishi, jajji qomati, samimiyligi, odamga zavq bag‘ishlaydigan harakatlari, holati, shirin tili va shu kabi jarayonlarni ochib berishga xizmat qilgan. “Alla” qo‘shig‘ida -*jon*, -*xon*, -*cha*, -*choq*, -*gina* affikslari suyish, erkalash kabi subyektiv modallikni ifodalash uchun qo‘llanilgan: Zero, “Alla – onaning farzandi bilan his-tuyg‘ular orqali munosabatda bo‘lish vositasidir. Ular lirik asarlar sifatida kuylovchilarning ichki kechinmalarini ifodalaydi”[5. –B.229]. *Kela qolsin allasi-yo, alla-yo, Dadajonisining bolasi-yo, alla, Dadajoni qayga ketdi-yo, alla, Onajonisin lolasi-yo, alla* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 29). Bolaga alla aytayotgan onalar mehri jo‘shib, turli narsa, o‘simplik, jonivor va parrandalarni o‘xshatish o‘rnida qo‘llagan. Ammo shunchaki ularning nomini qo‘llamasdan, egalik va kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarini qo‘shishgan: *Ko‘ldagi o‘rdakkinam, alla, Cho‘ldagi churrakkinam, alla, Bulbulim, g‘o‘rrakkinam, alla, Sho‘x toychog‘im, alla, Alla-yo, alla* (36); *Jon bolam, erkatoym, Bulbulginam, alla. Uxlab qolsin shu oyim, Sumbulginam, alla. Onajonisi gulbog‘i, alla, Erkatoygynam, alla. Otajonisi zo‘r tog‘i, alla, Yop-yorug‘ oyginam, alla* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 37). Ba’zan suyish, erkalash ma’nosidagi so‘zlar va ularga qo‘shilgan subyektiv baho shakllari bolaning qizcha yoki o‘g‘ilcha ekanligini ham ifodalagan: *Alla deb tebratay oyimchani, Alla deb uxlatay beginchani.* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 35).

Yosh bolalarni suyish qo‘shiplari – “Erkalamalar”da kichraytirish-erkalash affikslari janr talabi bilan juda faol qo‘llanilgan. Chunki “Erkalamalar” matnidan bu qo‘shimchalar olib tashlansa, subyektiv munosabat yo‘qolib, qo‘shiqning mazmun-mohiyati ham butunlay o‘zgaradi: *Munchagina, tunchagina, Kunchagina, shunchagina, Yashnab turgan g‘unchagina.* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 58). Haqiqatan ham erkalama mazmunini o‘zida tashiyotgan, qo‘shiqning qofiya, ohangdorligini ta’minlayotgan vosita ham mana shu



qo'shimchalar sanaladi: *Shuginagina kim ekan o'zi, Shuginagina –puchuqchami, Shuginagina – kuchukchami, Shuginagina – mushukchami, Shuginagina shirin puchuqchami, Yoki shumshuk, shumshukchami?!* (“O'zbek xalq og'zaki ijodi. Boychechak”, 58). Agar bu misralardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olib tashlasak, bolani erkalash, suyish emas, haqoratlashga yaqin holat yuz beradi, mazmun yo'qoladi. “Erkalam”larda nafaqat -cha, -gina affikslari, balki -jon, -xon, -toy kabi affikslar ham bola yaqinlarining bolaga nisbatan samimiy munosabati, suyib erkalashlarini ifodalaydi: *Muharramxon – podsho qiz, Oshga qoshiq, nonga tuz. Muharramxonim – jonom, Asalli nonim.* (“O'zbek xalq og'zaki ijodi. Boychechak”, 70); *Akbarjonim shu joyi, Bozorda xolli toyi. Kokillari tilloyi, O'zim aylanayin, iloyi* (“O'zbek xalq og'zaki ijodi. Boychechak”, 72).

Bolalar folklorlaridan biri “Ovutmachoq”larda ham subyektiv baho shakllari faol qo'llaniladi: *Obov-obov, qizginaginam, Menden qolar izginaginam, Obov-obov, shugina obov, Jonim obov, qizginam obov!* (“O'zbek xalq og'zaki ijodi. Boychechak”, 83); *Alitoyning beshigi, toldan emas, archadan. Alitoyning o'ziyam / Esli bola barchadan* (“Chittigul”, 30). Bunday paytda bu shakllar erkalash ma'nosini kuchaytiradi va bolani ovutayotgan buvi yoki onaning qalb kechinmalarini to'liq aks ettirishga xizmat qiladi.

Bolalarga xos og'zaki ijod namunalaridan biri “Aytishuvlar”da ham subyektiv baho shakllari, ayniqsa, o'zida hurmat ma'nosini ifodalaydigan -jon, -xon kabilar faol qo'llaniladi. Bu bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi zarurligini (garchi nomi “Aytishuv” bo'lsa-da) eslatish vazifasini bajaradi: – *Salimjon, Salimjon! – Labbay. – Betingizmi yo qozonning kuyasimi? – Halimjon, Halimjon! – Hovva. – Burningizmi, voyvayakning uyasimi? – Salimjon, Salimjon! – Labbay. – Qulog'ingizmi, yerto'laning eshigimi? – Halimjon, Halimjon! – Hovva. – Ko'zingizmi yo po'stakning teshigimi?* (“Chittigul”, 31); *Sottivoy sotdi. – Nimani sotdi? – Otini sotdi. – Sottivoy sotdi. – Nimani sotdi? – Molini sotdi.* (“Chittigul”, 32). So'z aytishayotgan bolalar ismiga bu qo'shimchalarining qo'shilayotgani ular o'z gaplarini shunchaki bolalar o'yini yo'lida aytayotganidan, bir-birlarini kamsitib, mazax qilmayotganlaridan darak beradi: *Umidaxon oy, O'ng qo'lida choy./ Chap qo'lida non./ Voy, lablarida loy!../*





Ozodaxon oy, Rost qo‘limda choy./ Chap qo‘limda qand, Hoy, labimdagimoy!.. (“Chittigul”, 33).

O‘zbek xalq topishmoqlarida ham kichraytirish-erkalash affikslari faol qo‘llaniladi, kichiklikka ishora ma’nosida, ba’zan ta’kid, kuchaytirish ottenkasini berish uchun yoki topishmoq javobini topadiganlarga yaxshi kayfiyat ulashish maqsadida so‘zlarga qo‘shiladi. M.Abdurahimov tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq topishmoqlari” to‘plamidan (Toshkent, 2008) olingan ushbu topishmoqlar fikrimizni dalillaydi: *Uzun-uzun iz kelar, Uzun bo‘yli qiz kelar, Qoshginasi qaltirab, Ko‘zginasi yaltirab.* (*Suv, ariq;4-b*); *Kichkina oxurcha, Ichi to‘la mixcha* (*Og‘iz, tish; 9-b*). Kichraytirish ma’nosida qo‘llangan -cha qo‘shimchasi topishmoqda yashiringan narsani topishga ishora ma’nosida qo‘llanilishi ham mumkin: *Chelakcha, Chelakcha ichida baliqcha* (*Og‘iz, til; 9-b*); *Jar yoqalab tosh qo‘ydim, Jiyronchani bo‘s qo‘ydim* (*Tish, til; 9-b*). Bundan tashqari bu qo‘shimcha tasvirni ko‘z o‘ngimizda yaqqol keltirishga xizmat qilishi mumkin: *Hovuzcha,/Hovuzcha ustida buloqcha,/ Buloqcha ustida chiroqcha,/ Chiroqcha ustida qalamcha,/ Qalamcha ustida ayvoncha,/ Ayvoncha ustida chakalakzor* (*Og‘iz, burun, ko‘z, qosh, peshona, soch; 9-b*). Subyektiv baho shakllaridan -boy, -jon, -xon, -gina, -toy affikslari ham topishmoq misralarida so‘zlarga qo‘shilib, kichraytirish, erkalash ma’nolarini ifodalash bilan birga samimiylit, xalqchilik, jonlilik baxsh etadi: *Kichkina, kichkina kelinchak, Boshlarida tugunchak* (*Isiriq; 26-b*); *Qizlarjonning boshida/ Qizil baxmal taqiya* (*Qizg‘aldoq; 26-b*). Ayrim hollarda bu qo‘shimchalar faqat modal munosabatni ifodalash uchungina emas, balki misradagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun ham zaruriyat kasb etadi: *Xuddiboy cho‘loq go‘r qazir,/ Go‘r qazisa ham yo‘l qazir* (*Sichqon; 15-b*). Ushbu topishmoqdagi xuddiboy so‘zidagi -boy qo‘shimchasini tushirib qoldirsak, misralardagi mazmun avvalgisidek chiqmaydi. Ba’zan subyektiv baho shakllari kichraytirish, erkalash ottenkasini berishdan tashqari, salbiy ma’nodagi so‘zga ijobiliylik ma’nosini yuklashga xizmat qiladi: *Gul shohida Hasan mastcha* (*Bulbul; 18*). Bolalar folklorida nihoyatda keng qo‘llanilgan subyektiv baho shakllari xalq og‘zaki ijodining boshqa turlarida ham ma’lum vazifa bajaradi. Masalan, chorvachilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlarda bu affikslar erkalash, suyish, kichraytirish ottenkalarini ifodalashdan tashqari, o‘ziga xos modal



munosabatlarni tashishga xizmat qiladi: *Sigir sog‘dim, ho‘sh-ho‘sh,/ Sigirginam, o‘zing jo‘sh,/ Sigirga yem bermasam,/ Xurmaginam shu kun bo‘sh./ Sigirginam bolasi, ho‘sh-ho‘sh,/ Sigirlarning sarasi, ho‘sh-ho‘sh,/ Xonazotim fe‘li bo‘sh,/ Suluvginam, ho‘sh-ho‘sh* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 303). Bu haqida manbalarda quyidagicha fikr keltiriladi: “Avvalo, sog‘iladigan sigirga, qo‘yga, echkiga alohida alohida qo‘shiq yaratilishiga e’tibor beraylik. Ho‘sh qo‘shiqlari qo‘y sog‘ishda aytilmaganidek, turey-tureylar va churiya-churiyalar sigir sog‘ishda aytilmagan. Tabiiyki, hayvon uchun qanday qo‘shiq aytib sog‘ish baribir emasmi? – degan savol tug‘iladi. Ha, hayvon uchun baribirdir. Ammo egasi uchun bunday emas. Gap shundaki, chorvador xalq har bir qo‘y yoki echkiga o‘ziga xos munosabatda bo‘ladi. Ular hatto sigirning qaysi rangni yaxshi ko‘rishini, qaysi qo‘shiqni ijro etganlarida ko‘proq sut berishini bilganlar. Yoki “churiyalardagi “og‘ziginang”, “yelinginang”, “sersoqolim” kabi so‘zlarga e’tibor bering. Nega “og‘zing” yoki “yelining” deb qo‘ya qolinmagan. Avvalgi tur qo‘shiqlardagi kabi bularda ham echkini erkalash, uning tabiatiga moslashish harakati seziladi”[5.–B.204-205]. *Og‘ziginangda o‘ting bor, churey-churey,/ Yelinginangda suting bor, churey-churey,/ Sersoqolim jonivor, churey-churey,/ Kerilib turgan buting bor, churey-churey.* Subyektiv baho shakllari hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlarda ham ma’lum vazifa bajargan, ya’ni qo‘shiq aytayotgan kishining holati, uning ahvolini, ichki kechinmalarini olib berishga xizmat qilgan: Masalan, ip yigirish, kashta tikish kabi hunarmandchilik ishlari mehnati oson ko‘ringani bilan e’tibortalab, injiq, vaqt oladigan, qo‘lni, ko‘zni toldiradigan, mehnat natijasi tez ko‘rinmaydigan, sabr-toqatni talab qiladigan ish ekanligi hunarmandchilik qo‘shiqlari matnida ham aks etgan. E’tibor bersak, hunarmandchilik buyumlari, narsalarga (charx, ip) qo‘shilgan -gina affaksi hunarmandning tushkun kayfiyatini, majburligini, ammo bir joyda diqqatni jamlab ishslashning mashaqqatini, toliqqanlikni ko‘rsatib berishga xizmat qilmoqda: *Charxginam, ey, charxginam,/ Yurakkinamni olasan,/ Ayt-chi, sen bu yurtlardan,/ Qachongina yo‘qolasan?!* (O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. “Boychechak”, 310); *Ipginam ado bo‘ldi,/ Jonginam judo bo‘ldi,/ Sanamani tikkuncha,/ Qaynonam xudo bo‘ldi* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 313). Quyidagi misralarda esa kashta tikishda eng muhim bo‘lgan qo‘l va ko‘zni erkalash ma’nosи mavjud: *Ilma tikar*



qo'lginam-a, Farosat qil ko'zginam-a, Erta-yu kech tikdim ilma, Ter keladi yuzginama-a (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 313). *Ter keladi yuzginama-a* misralaridan esa bu ishning ham mehnati og‘ir ekanligi kitobxonga anglashiladi.

Bog‘ qo‘srig‘i, don, sabzavot, mevalar haqidagi xalq qo‘sriqlarida bu affikslar turli modal munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi: *Olmaganam, osh endi, Ertaroq sen pish endi,/ Kun o’tkazma, osilma,/ Kel ertaroq tush endi* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 318).

Xalq dostonlarida ham subyektiv baho shakllari kichraytirish, erkalash ma’nolarida; suyish, hurmat kabi ijobiy baho munosabatini yoki, aksincha, kamsitish, haqorat, kinoya kabi salbiy baho munosabatini ifodalash uchun so‘zlarga qo‘silib keladi. Masalan, “Ravshan” dostonida doston qahramonlari *Go‘ro‘g‘libek, Avazxon, Hasanxon, Ravshanbek* deb nomlangan va bu affikslar o‘zida hurmat ma’nosini ifodalagan: *Hasanxonga xon Dallidan bir o‘g‘il paydo bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek to‘ylar qilib, otini Ravshanbek qo‘ydi. Avazxon bir-ikki yildan so‘ng qizli bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek quvonib, suyunib, munga ham to‘ylar qilib, otini Gulanor qo‘ydi* (“Kuntug‘mish. Ravshan”, 165). Dostonda qahramonlar tilidan ham bu vositalar hurmat, erkalash, suyish, e’zozlash ma’nosini ifodalash uchun ishlataligan: *Go‘ro‘g‘libek Ravshanbekni ko‘rib, dimog‘i chog‘ bo‘lib, parilarga qarab aytди: “Ho‘ parilar, mening ko‘nglimga bir gap keldi, sizlarga aytayin, sizlar nima deysizlar. Mening o‘zimga shu ishim juda xush keldi, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulanorjонни Ravshanjonga fotiha qilayin, o‘zimsovchi bo‘layin, bugun borayin”* (“Kuntug‘mish. Ravshan”, 165). Hasanxon ham yolg‘iz o‘g‘li Ravshanni ko‘p o‘rinlarda Ravshanjon deb ataydi va bu bilan kitobxon uning o‘g‘liga nisbatan otalik mehrini, qalb kechinmalarini angraydi: *E Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, – deb turib, asli mard emasmi, “Kel tavakkalda”, – deb ...o‘zi dildorlik berib ...o‘g‘liga qarab necha yerdan timsol keltirib, nasihat qilib so‘z aytayotir...* (“Kuntug‘mish. Ravshan”, 185). Zulxumorning jamolini uzukda ko‘rib, uylanishga qaror qilgan Ravshanning unga munosabatini ochib berishda ham subyektiv baho shakllari qo‘l kelgan: ...*Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib, “Yorim Zulxumorjонни ko‘raman”, – deb, dimog‘i chog‘ bo‘lib, vaqtı xush bo‘lib, bozordagi odamlarga qarab, bir so‘z aytib turibdi...* (“Kuntug‘mish. Ravshan”,





214). Ravshan tilidan yorining ismiga *-jon* qo'shimchasingin qo'shib aytilishi uning Zulxumorni yaxshi ko'rib qolganligini ifodalayapti. Dostonda Ravshanga ba'zi o'rinda *-bek*, ba'zi o'rinda *-jon*, ayrim hollarda *-xon* qo'shimchasi qo'shiladi. Lekin bu qo'shimchalarning barchasi bir maqsad uchun qahramonga nisbatan hurmat maqsadida ishlatilgan: *Zulxumoroyimni... olib, Ravshanxon polvon yo'lga tushdi* ("Kuntug'mish. Ravshan", 365).; *Ravshanbek aytdi*: "...*Sizlar mening ko'zimni boylab, ...haydab keldinglar*" ("Kuntug'mish. Ravshan", 346). Ravshanni dor ostiga olib borishayotganda Ravshan Qoraxon podshoning shartiga rozilik bermaydi, mardlarcha dor ostiga borib, ko'zidagi bog'ichni yechishlarini so'raydi va otasini ko'rib, ko'ngli bo'shab o'z holatini bayon qiladi. Ayni shu o'rinda uning kechinmalarini tugal ko'rsatib berishda ota so'ziga qo'shilgan *-jon* affiksoidi qo'l kelgan: *Uyquda boyladi nozik qo'limni,/ Sog'indim, otajon, Chambil elimni./ Tor zindonda: "Vo ota", - deb yig'ladim,/ Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?/ Yo'lingga intizor bo'ldim, otajon,/ Baloga giriftor bo'ldim, otajon,/ Dushmanga xor-u zor bo'ldim, otajon,/ Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon* ("Kuntug'mish. Ravshan", 347). Dostonlarda xalq o'z orzu-armonlari, istak-xohishlarini turli yo'llar orqali ifodalashga harakat qilgan. Dono xalq odamlarning bir-birlari bilan nasl-nasab, mavqe, mansab, boylikka qarab munosabatda bo'lishini qoralagan, o'zaro muomalada ham do'stona, birodarlarcha munosabat bo'lishini, insonlar bir-birlarini kamsitmasliklarini istashgan. Buni "Malikayi ayyor" dostonidagi Go'ro'g'lining o'z xizmatkori Soqibulbulga murojaatida kuzatish mumkin, chunki Go'ro'g'li ko'p o'rinda uni Soqijon deb chaqiradi: *Ana endi bir kunlari Chambilda davron surib, qirq yigit bilan, Hasan, Avazi bilan, qancha amaldori bilan suhbat qurib o'tirib, Soqi degan xizmatkorini chaqirib: Soqijon, G'irko 'k otni abzallab, choqlab olib kel, – dedi; Shunda Go'ro'g'libek Avazxon dan bu so'zni eshitib: ...Soqijon, G'irotni afzallab, choqlab, egarlab, Avazjonga olib kelib ber, dedi.* Bundan tashqari "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda Go'ro'g'lining boshqa xizmatkorlari ismlariga ham *-xon*, -boy affikslari qo'shilgan holda (Gajdumxon – Go'ro'g'lining otboqari "Balogardon" dostonida va hk.) murojaat qilinadi. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, "Go'ro'g'li" turkumidagi barcha dostonlarda *-jon*, *-xon*, *oy,-bek* kabi subyektiv baho shakllari kishi ismlariga, qavm-qarindoshlikni anglatuvchi *bobo*, *ota*, *ona* kabi so'zlarga



qo'shilib, xalqimizning xushmuomalaligi, iliq mehri, o'zaro hurmatini yoritishga xizmat qilgan.

Xullas, kichraytirish-erkalash shakllari xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarda kichraytirish, erkalash ma'nolari bilan bir qatorda hurmat, e'zozlash, samimiy munosabatni ifodalash uchun, jonlilik, xalqchillikni oshirish maqsadida, ayrimlarida esa janr talabi bilan faol qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. <http://xs.uz/uz/> –Toshkent, 2019.
2. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
3. Karimov S. O'zbek tilining morfologik stilistikasi. –Samarqand: Fan bulog'i, 2022.
4. Kuntug'mish. Ravshan. (Dostonlar). –Toshkent: Sharq, 2011.
5. Madayev O., Jo'rayev M., Sobitova T., Muxitdinova N. O'zbek folklori. – Toshkent: "Zebo Print", 2022. –B.32.
6. Chittigul. (Nashrga tayyorlovchilar: Yo'ldosh Sultonov, Nasimxon Rahmonov, Shomirza Turdimov). –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Ko'r tomlik. Boychechak.–Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
8. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1980.
9. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 35. – C. 210-215.
10. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.





11. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРГИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).
13. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи // Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
14. Рўзибоев, Дишод Аъзам Ўғли XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchiyarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchiyarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).
15. Ruziboev Dilshod A'Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).
16. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz // Miasto Przyszlosci. – 2023. – T. 41. – C. 107-109.
17. Jalilov B. N. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 10. – С. 276-282.
18. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).
19. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙГОНИШ ДАВРИ ВА ФАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).

